

## ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBURNING POETIKAGA OID MULOHAZALARI

**Ho'jamberdiyeva Dildora**

Chirchiq davlat pedagogika universiteti 2-bosqich talabasi

### ANNOTATSIYA

*Ushbu maqolada o'zbek adabiyoti tarixiga ulkan hissa qo'shgan Zahiriddin Muhammad Boburning adabiy-tanqidiy qarashlari „Boburnoma“ va „Aruz risolasi“ nomli asarlari orqali keng aks ettiriladi. Boburning XV asrning oxiri va XVI asrning boshlaridagi turli voqea hodisalar ichida yashashi, ijtimoiy hayotda tutgan o'rni Bobur – shoir va adabiyotshunos sifatidagi dunyoqarashining shakllanishiga ham ta'sir qilmay qolmaydi. Boburning dunyoqarashida borliqqa, hayot va uning go'zalliklariga, inson va uning fazilatlariga qiziqish asosiy o'rinni egallaydi. Shu sababli uning she'riyati, „Boburnoma“si, „Aruz risolasi“ va ularda ifoda etilgan adabiy – tanqidiy qarashlari ham ana shunday dunyoqarashga asoslanadi. Bu maqolada Boburning badiiy adabiyotga oid qimmatli topilmalari haqida so'z yuritiladi.*

**Kalit so'zlar:** poetika, adabiy munozara, vazn, she'r, obraz.

## ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BABUR'S COMMENTS ON POETICS

### ABSTRACT

*In the article, the literary and critical views of Zahiriddin Muhammad Babur, who made a great contribution to the history of Uzbek literature, are widely reflected through the works „Boburnoma“ and „Aruz risola“. His role in social life does not affect the formation of Babur's worldview as a poet and literary critic. In Babur's worldview, interest existence, life and its beauties, man and his qualities occupy the main place. Therefore, his poetry, „Boburnoma“, „Aruz Risola“ and his*

*literaty and critical views expressed in them are based on such a worldwide .This article talks about Babur's valuable findings on fiction.*

**Key words:** *poetics, literaty discussion, weight, poem, image.*

## **KIRISH**

Boburning she'riyatida she'r va undagi mazmun, adabiy munozara – she'r bahsining mavqeyi hamda mumtoz adabiy merosga doir qarashlari ma'lum darajada ifoda etilgan. Bobur she'r haqida gapirib, uning mazmunli bo'lishi bu mazmun afsonaviy “obi hayvon” kabi kishilarga ta'sir qilishi kerakligi, she'r mazmuni o'quvchiga biror narsani o'rgata bilishi lozimligini uqtiradi.

*Ey kim, bari she'r ahliga sen xon yanglig',  
She'rning bori she'rlarga sulton yanglig'.  
Mazmuni aning xati savodi ichra,  
Zulmat orasida obi hayvon yanglig'.*

Bundan ravshanki, Bobur adabiyotda mazmunning katta ahamiyatini yaxshi tushungan.

Muallif shoirning, adabiyotshunosning qobiliyati she'r bahsida-adabiyot, she'rga bag'ishlangan munozara va mushoiralarda ma'lum bo'ladi, deb shunday yozadi:

*Do'stlarning suhbatida na xush o'lg'ay bahsi she'r,  
To bilingay har kishining ta'bi birla holati.*

Adabiy munozaraning ahamiyatini yaxshi anglagan Bobur shoir-yozuvchilarni uni keng qo'llashga chaqiradi. Chunki adabiy munozaralar turli masalalarni yechish she'r va uning qonuniyatlarini tushunishga yordam beradi. Shuning uchun kishining do'sti yo shoir bo'lsin yoki she'r do'sti bo'lsin. Zero u kishining o'sishiga ko'maklashadi, deydi Bobur:

*Yor uldirki, she'rga mayli bo'lsa,  
Netgay kishi she'r g'ayr xayli bo'lsa.*

Bobur she'riyatida o'zbek adabiy tanqidida ma'lum bo'lgan faxriya ham ishlatilgan. Bulardan ko'rinadiki, Bobur Alisher Navoiy an'analari, uning fikr va qaralashlarini olg'a surgan.

### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA**

Boburning ijod masalalariga doir qarashlari, shoir va san'atorlarning ijodiga bo'lgan munosabati "Boburnoma"da yanada kengroq ifoda etilgan bo'lsa, she'riyatga doir mulohazalari "Aruz risolasi"da bayon qilingan. "Boburnoma" o'zbek nasrining yirik namunasigina bo'lib qolmay, balki u tarix, jug'rofiya, o'simlikshunoslik haqida ham qimmatli manbadir. Bu o'rinda "Boburnoma"ning barcha xususiyatlari to'g'risida emas balki unda ifoda etilgan adabiy-tanqidiy qarashlari haqida ba'zi mulohazalar bayon etiladi. "Boburnoma"da Navoiy tomonidan "Majolis un-nafois"ga kiritilgan shoirlarning juda oz qismi to'g'risida (Abdurahmon Jomiy, Muhammad Solih, Shayxim Suhayli, Sayfiy Buxoriy, Kamoliddin Binoiy, Yusuf Badiiy, Badriddin Hiloliy, Hotifiy va shu kabilar) fikr yuritilgan. Bobur shoirlarning ba'zilari haqida gapirar ekan, ularning "Majolis un-nafois" yaratilishidan so'nggi davrdagi hayoti va ijodiga doir yangi ma'lumotlar beradi. Bu jihatdan "Boburnoma"ning shoirlar va san'at ahliga bag'ishlangan qismlari "Majolis un-nafois"ning o'ziga xos tarzda davomi kabi tuyuladi.

### **NATIJALAR VA MUHOKAMALAR**

Qayd etish kerakki XVI asrning birinchi choragida Movarounnahr va Xurosondagi siyosiy ahvol hamda Boburning shohlik uchun olib borgan kurashi "Boburnoma"da ifoda etilgan adabiy-tanqidiy qarashlarida ham iz qoldirgan. Bobur shoirlar haqida gapirishda, ularning ijodiga baho berishda ba'zan bir yoqlamalikka yo'l qo'yadi. Bu jihatdan Muhammad Solih ijodi haqida bildirilgan

fikrlar bunga misol bo'la oladi. Boburning Muhammad Solih g'azallariga bo'lgan munosabati umuman ijobiydir. Muhammad Solih esa mirzolar-temuriyzodalardan nafratlanib, Sultonlar – shayboniylar tomoniga o'tgan, ularni maqtab, “Shayboniynoma”ni ham yaratgan edi. Dostonda Shayboniy temuriylardan ustun qo'yiladi. Bobur esa, bu asarning bir baytini ma'qullab, qolgan qismlarini qoralaydi. “Muhammad Solihning, - deb yozadi Bobur, - choshnilik g'azallari bor, agarchi hamvorlig'i choshnisiga yo'qtur, turkiy she'ri ham bor, yomon aytmaydur. So'ngra Shayboniixon qoshiga kelib edi, filjumla rivoyat qilib edi. Shayboniixonning otig'a bir turkey masnaviy bitibdur, ramali musaddasi mahbun vaznidakim, “Sabha” vazni bo'lg'ay, bisyor sust va firudtur, ani o'qug'on kishi Muhammad Solihning she'ridan bee'tiqod bo'lur. Bir yaxshi bayti budur:

*Bo'ldi Tanbalg'a vatan Farg'ona,  
Qildi Farg'onani tanbalxona....*

Ul masnaviyda muncha bayt ma'lum emaskim bo'lg'ay, sharir va zolimta'b va berahm kishi edi”. Muhammad Solih baytining Boburga ma'qul tushishining asosiy sababi shundaki, Bobur Samarqandga ikkinchi marta yurish qilganida Ahmad Tanbal Andijon hokimiyatini butunlay o'z qo'lga olib, Boburga qarshi kurashdi. Farg'onadan mahrum bo'lgan Bobur Muhammad Solihning Ahmad Tanbalni tanqid qilganini shuning uchun ma'qullaydi. Demak, Bobur o'ziga dushman bo'lgan kishilarning boshqa yo'nalishdagi kishi tomonidan tanqid qilinishini ham qo'llab quvvatlagan.

### **XULOSA**

Xulosa qilib aytganda, Mirzo Boburning „Boburnoma” va „Risolayi aruz” asarlari adabiyotga oid qarashlarini o'rganishdagi muhim manba hisoblanadi. Ushbu asarlardagi she'r va she'r ilmiga taaluqli ma'lumotlar g'oyat qimmatlidir. Zero, Boburning adabiyotga oid qarashlarini o'rganib o'rta asr adabiy muhiti haqida tasavvurga ega bo'lamiz.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES):**

1. *Jalilov S. Bobur va Andijon.-Toshkent.: 'O'zbekiston' nashriyoti, 1993.-102 b.*
2. *V.Zohidov. Bobirning faoliyati va ilmiy-adabiy merosi haqida. Kitobda: Bobir. Bobirnoma. -T.:1960;*
3. *H.Qudratullaev. Boburning adabiy-estetik qarashlari. -T.: Fan, 1983;*
4. *S.Hasanov. Boburning „Risolayi aruz— asari. -T.:1986;*
5. *Xayriddin Sulton. Boburiynoma. -T.:1996;*
6. *G'aybulloh as-Salom, N.Otajon. Jahongashta „Boburnoma—. — T.:1996;*